

# «Va'da qilingan to'lov OK» Aksiyasining qoidalari

«Va'da qilingan to'lov OK» Aksiyasi (keyingi o'rirlarda "Aksiya" deb yuritiladi) «Humans» Ma'suliyati cheklangan jamiyat, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Provayder), tomonidan o'tkazilib, yangi abonentlarni jalb qilish, Provayder tomonidan o'tkaziladigan aloqa xizmatlariga bo'lgan qiziqishni oshirish, Provayder bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzishga qaratilgan.

## 1. Aksiya haqida ma'lumot

- 1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan foydalaniladigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi Provayder tomonidan tasdiqlangan hamda [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida, shuningdek Tariflarning tavsifida joylashtirilgan HUMANS aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi aniq belgilangan bo'lmasa).
- 1.2. Aksiya ishtirokchilari – Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Operator bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan hamda Qoidalarning 2-bo'lmidan sanab o'tilgan boshqa harakatlarni amalga oshirgan Mijozlar, jismoniy shaxslar.
- 1.3. Aksiya o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh. va Toshkent viloyati.
- 1.4. Aksiya o'tkazilish davri: 2021.01.18 dan 2021.03.18 gacha.

## 2. Aksiya tavsifi

- 2.1. Aksiya o'tkazilish davrida hamda Aksiya Qoidalaring 2-bandida ko'rsatilgan shartlarga amal qilgan holda Mijoz «Va'da qilingan to'lov OK» xizmatini ulash imkoniga ega bo'ladi, va ushbu xizmat doirasida Mijozga xizmatlarni kreditga iste'mol qilish huquqini taqdim etgan holda Humans Mijozga xizmatlarni to'lash muddatini uzaytirish imkonini beradi.
- 2.2. «Va'da qilingan to'lov OK» Xizmatining tavsifi
  - 2.2.1. Va'da qilingan to'lov miqdori (keyingi o'rirlarda "Ta'minlovchi to'lov summasi" deb yuritiladi) 5000 so'mga teng.
  - 2.2.2. «Va'da qilingan to'lov OK» xizmatining amal qilish davrida Mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida Ta'minlovchi to'lov summasi miqdoridagi qarzdorlik aks etmaydi.
  - 2.2.3. Xizmatga buyurtmani 2021.01.18 dan 2021.03.18 gacha faqat Aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun Shartnomalarida va Humans'da oldindan amalga oshirilgan buyurtmani kuryer orqali yetkazib

berish xizmatini rasmiylashtirish sharti bilan amalga oshirish mumkin. Xizmatni ulash Shartnomani tuzishda Humans kuryeri tomonidan mijozning og'zaki roziligidagi ko'ra amalga oshiriladi.

2.2.4. «Va'da qilingan to'lov OK» xizmatining amal qilish muddati – ulangan paytdan boshlab 3 sutka. Xizmatning amal qilish muddati davomida Mijoz Shaxsiy hisobvarag'ini Ta'minlovchi to'lov summasiga to'ldirishi shart. Agar Mijoz tomonidan kiritilgan faktik to'lov miqdori Ta'minlovchi to'lov summasiga teng bo'lsa, Ta'minlovchi to'lov to'lq qoplanadi, «Va'da qilingan to'lov OK» xizmati o'chiriladi. Agar Mijoz tomonidan kiritilgan faktik to'lov miqdori Ta'minlovchi to'lov summasidan farq qilsa, faktik amalga oshirilgan to'lov Ta'minlovchi to'lov bilan birga Xizmatning amal qilish muddati tugaguniga qadar Mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida aks etadi. Mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida aks etgan Ta'minlovchi to'lov miqdoriga teng mablag'lar Mijozga qaytarilmaydi. Agar Xizmatning amal qilish davri davomida Mijoz Shaxsiy hisobvarag'ini to'ldirmasa, Mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida Ta'minlovchi to'lov summasi miqdoridagi qarzdorlik yuzaga keladi va Xizmatlarni ko'rsatish Provayder tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

2.2.5. Xizmat Mijoz tomonidan o'chirilishi talab etilmaydi va Xizmatning amal qilish muddati tugashi bilan avtomatik tarzda o'chiriladi.

### **3. Yakuniy qoidalar**

3.1. Ushbu Qoidalar Provayderning Saytida chop etilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarga o'zgarishlar kiritishga yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali oldindan ma'lum qilgan holda Aksiyani bekor qilishga haqli. Ma'lum qilingan sana – Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan kun. Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya bekor qilingan sanaladi.

3.2. Qoidalarning 2-bo'limalda sanab o'tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblanuvchi Qoidalar bilan to'lq va so'zsiz rozilikni anglatadi.